

SHAXSNING TURLI YOSH DAVRLARIDA KUZATILADIGAN PSIXOLOGIK O'ZGARISHLARI

Qasimova Gulirano Murod qizi

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 39-son umumta'lim maktabi psixologi

To'xtaboyeva Tursunoy Qosimboyevna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 49-son umumta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning turli yosh davrlarida o'zgarishi va rivojlanish, shaxsning psixologik xususiyatlari kabi tushunchalarga ta'rif berilgan. Shuningdek, turli yosh davrlarida rivojlanish jarayonining psixologiya va pedagogika uchun zarur bo'lgan xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan. Bolaning individual rivojlanishi va yosh xususiyatlariga bog'liq o'zgarishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Xulq-atvor, xarakter, biogenik nazariya, ijtimoiy status, ontogenetik qonuniyatlar, shaxslararo munosabatlar, shaxs, individuallik, yetuklik, yetilish, ontogenez, ijtimoiylashuv.

KIRISH

Shaxs ma'lum ijtimoiy munosabatlar sistemasida shakllangan ijtimoiy mavjudotdir. Har bir tarixiy davrda shaxsning o'ziga xos xususiyatlari shu davrning ijtimoiy-iqtisodiy tipi va tarbiya tizimiga bog'liq holda tashkil topadi va shakllanadi. Bolaning psixik rivojlanishi masalasi yosh va pedagogik psixologiyaning asosiy muammosi hisoblanadi. Bu muammoni to'g'ri hal etish yosh va pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida ham, yosh avlodni zamon ruhida tarbiyalashda ham ahamiyati kattadir. Xulq-atvor shakllanishida tarbiyaning roli katta. Ya'ni bunda tarbiya orqali bolada turli harakatlar, xarakter ko'rinishlari, o'ziga xos munosabatlar va shaxslararo munosabatlarda o'ziga xos yondashishlar shakllanadi. Bu ularning oilada olgan tarbiyasi bilan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ta'sirida o'z aksini topadi. Bu bir tomondan bolaning o'z ota-onalaridan meros sifatida o'zlashtirgan sifatleri, ikkinchi tomondan, tashqi muhit ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu muammolar ustida izlanishlar olib borgan olimlar L.Vigotskiy, J.Piaje, S.Rubishteyn, A.Leontiv ikkala omil rolini ham inkor qilmagan holda ijtimoiy muhitning yetakchi ta'siri haqidagi fikrni baravar yoqlaganlar. Chunki to'g'ri tashkil etilgan talim shaxsning rivojlanishi, uning o'z-o'zini anglash va o'zgalarga munosabati, bilish jarayonlarini hamda intellektual taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon boladi. U o'zining xarakteri, qiziqishi va qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Bular shaxsning o'ziga xos xususiyatlar rivojlanib malumot bir bosqichga yetsagina mukammal, kamol topgan inson deyiladi.

Shaxsning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga boʻlgan munosabati turlicha. Uning faollik darajasi va odob-axloq borasidagi yetukligi turlichadir. Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalash boʻyicha qator mustaqil nazariyalar mavjud. Ular inson shaxsini tadqiq qilishga har xil nuqtai nazardan yondashadi va muammoning mohiyatini turlicha yoritadi. Ularga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik nazariyalarni kiritish mumkin. Biogenetik nazariyada insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan, qolgan jarayonlarning rivojlanishi ixtiyoriy boʻlib, ana shu omil bilan oʻzaro bogʻliqdir. Mazkur nazariyaga binoan, rivojlantirishning bosh maqsadi biologik determinantlarga qaratiladi va ulardan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kelib chiqadi. Biogenetik qonunni F.Myuller va E.Gekkel kashf qilganligi tarixdan maʼlum. Biogenetik organning rivojlanishi nazariyasini tashviq qilishda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashdi muayyan darajada tarixiy rol oʻynagan biroq unda organning individual va tarixiy rivojlanishi munosabati tushuntirishda qoʻpol xatolarga yoʻl qoʻyilgan. Jumladan, biogenetik qonunga koʻra shaxs psixologiyasining individual rivojlanishi butun insoniyatning tarixiy rivojining asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi. Nemis psixologi V.Shterinning fikricha chaqaloq hali odam hisoblanmaydi, balki faqat sutemizuvchi hayvondir; 6 oylikdan oshgach u psixik rivoj jihatidan-faqat maymunlar darajasiga tenglashadi. 2 yoshida oddiy odam holiga keladi. 5 yoshlarida ibtidoiy gala holidagi odamlar darajasiga yetadi, maktabga kirgandan boshlab, ibtidoiy davrni boshidan kechiradi, kichik maktab yoshida uning ongi oʻrta asr kishilari darajasiga, nihoyat, yetuklik davridagina hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga erishadi. S.Xoll rekapitulyatsiya qonunini psixologik oʻsishning bosh qonuni deb hisoblaydi. Uning fikricha, ontogeniz filogenizning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Olimning talqinicha, goʻdaklik hayvonlarga xos rivojlanish pallasidan boshqa narsa emas. Bolalik esa asosiy mashgʻuloti ovchilik va baliqchilik boʻlgan qadimgi kishilarning davriga aynan mos keladi. 8-12 yoshlardagi oʻsish davri yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishdagi kamolotga tengdir. Oʻspirinlik va jinsiy yetuklikdan boshlanib, yetuklik davrigacha davom etib romantizmga barobardir. S. Xollning talqinicha, bu davrlar boʻron va tazyiqlar, ichki va tashqi nizolardan iborat boʻlib, odamda individuallik tuygʻusi vujudga keladi. Yosh davrlarini tabaqalashning bu turi oʻz navbatida tanqidiy mulohazalar manbai vazifasini oʻtaydi. Chunki inson zotidagi rivojlanish bosqichlari filogenezda aynan takrorlanmaydi va takrorlanishi mumkin emas.

Biogenetik konsepsiyaning boshqa bir turini nemis konstitutsion psixologiyasi namoyondalari tomonidan ishlab chiqilgan. E.Krechmer shaxs tipologiyasining negiziga bir qancha biologik omillarni (masalan, tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan oʻsishining xususiyati oʻrtasida uzviy bogʻliqlik mavjud deb taxmin qiladi. E. Krechmer odamlarni ikkita katta toifaga: sikloid (tez

qo`zg`aluvchi, his tuyg`usi o`ta beqaror) va shizoid (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his tuyg`usi cheklangan)larga ajratdi. Bu taxminini yosh davrlari xususiyatlariga ham tatbiq etib, o`smirlar sikloid xususiyatli, o`spirinlar esa shizoid xususiyatligini ta`kidlaydi. Lekin insoniyatning kamol topishida biologik shartlangan sifatlar hamisha yetakchi hal qiluvchi rol o`ynay olmaydi, chunki shaxsning individual – tipologik xususiyatlari bir-biriga aynan mos tushmaydi. Biogenetik nazariyaning namoyondalari – amerikalik psixologlar A. Gezell va S.Xoll rivojlanishning biologik modeliga tayanib ish ko`radilar. Bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilanish sikllari o`zaro almashinib turadi degan xulosaga keladilar. Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko`rinishi Zigmund Freyding shaxs talqinida o`z ifodasini topgan. Uning ta`limotiga binoan, shaxsning barcha xatti- harakatlari ongsiz biologik mayllar yoki instinktlardan kelib chiqadi. Birinchi navbatda, jinsiy maylga bog`liqdir. Bunday biologizatorlik omillari inson xulqini belgilovchi birdan bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi. Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko`rinishi sotsiogenetik nazariyadir. Bu nazariyada shaxsda ro`y beradigan o`zgarishlarni jamiyatning strukturali ijtimoiylashish usullari, atrofdagi odamlar o`zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Ijtimoiylashish nazariyasiga ko`ra inson biologik tur sifatida tug`ulib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta`sir ostida shaxsga aylanadi. G`arbning eng muhim nazariyalaridan biri - rollar nazariyasidir. Bu nazariyaga ko`ra jamiyat o`zining har bir a`zosiga status deb nomlangan xatti-harakatning barqaror usullari majmuasini yaratadi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo`lgan maxsus rollar uning xulq-atvorida, boshqalar bilan munosabatida sezilarli iz qoldiradi. Hozirda individual tajriba va bilimlarni o`zlashtirish nazariyasi keng tarqalgan. Mazkur nazariyaga binoan, shaxsning hayoti va voqelikka munosabati, ko`nikmalarni egallashi va bilimlarni o`zlashtirishi qo`zg`atuvchining barqarorligiga bog`liq. K.Levin tavsiya qilgan fazoviy zarurat maydoni nazariyasi o`z davrida muhim ahamiyat kasb etgan. K.Levin nazariyasiga ko`ra, shaxsning xulqi psixologik kuch vazifasini o`tovchi ishtiyoq, maqsad boshqarilib turadi. Bu kuchlar fazoviy zarurat maydonining ko`lami va tayanch nuqtasiga yo`nalgan bo`ladi. Yuqorida ifodalangan har bir nazariya shaxsning ijtimoiy xulqini o`zgaralar uchun yopiq yoki maxfiy muhitning xususiyatlardan kelib chiqqan holda tushuntiradi, bunda u odam xohlashi yoki xohlamasligidan qat`iy nazar mazkur sharoitga moslashmog`i zarur degan qoidaga amal qiladi. Menimcha. barcha nazariyalarda inson hayotining ijtimoiy-tarixiy, obyektiv shartsharoitlari mutlaqo e`tiborga olinmagan. Hozirgi psixologiyaning yirik vakili A.V.Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsning tarkib topishiga sotsial-psixologik nuqtai nazardan yondashib, yosh davrlarining o`ziga xos tasnifini yaratdi. A.V.Petrovskiygacha psixologlar shaxsning bir tekis kamol topishini o`rgangan bo`lsalar, u shaxs shakllanishining prosotsial (ijtimoiy qoidalarga muvofiq) va asotsial (aksi ijtimoiy) bosqichlari ham bo`lishi mumkinligini isbotlab berishga

harakat qiladi. Shaxsning kamol topishi uchta makrofazadan iboratligini qayd etib: birinchisi – bolalik davriga toʻgʻri kelishini, unda ijtimoiy muhitga moslashish koʻnikish (adaptatsiya) roʻy berishini; ikkinchisi – oʻsmirlarga xos individuallashtirish; uchinchisi – oʻspirinlikda yaʼni yetuklikka intilish davrida oʻziga xos holatlarni muvofiqlashtirish (birlashtirish) xususiyatlarini paydo boʻlishini namoyon qiladi. D.I.Feldshtsin bolaning ijtimoiy oʻsishdagi jamiyatga munosabatini asosiy va oraliq munosabatlarga ajratadi. Bolada jamiyatga munosabatning shakllanishi, ijtimoiylashuv, individuallashtirishning tarkibiy qismlarini egallash va bir davrdan ikkinchi davrga oʻtish orqali amalga oshadi. Asosiy munosabat – insonning kamol topishida keskin siljish nuqtalari paydo boʻlishi, ichki sifat oʻzgarishlari vujudga kelishi va yangi xislatlar tarkib topishining mahsulidir. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, D.I.Feldshtsinning yosh davrlariga ajratish nazariyasi ontogenezdagi barcha psixologik holat va fazilatlarni ifodalash imkoniyatiga ega emas, ammo u taʼlim-tarbiyaning sifatini oshirishga ijobiy taʼsir koʻrsatishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuman psixologlar tomonidan yosh davrlarini tabaqalashtirishning puxta metodologik negizga ega boʻlgan qator nazariyalari ishlab chiqilgan. Ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa boʻlib qoʻshildi, amaliy va nazariy muammolarni hal qilishda qoʻllanilmoqda. Shaxs xulq – atvoridagi oʻzgarishlar va ularning oʻziga xos jihatlarini shakllantirishda bolaning qiziqishlariga eʼtibor berish, mutaxassis va maslahatchi psixologlar hamkorligi, hamda ota-ona oila aʼzolarining oʻzaro munosabatlarini taʼsiri bilan belgilanadi. Ayrim ota-onalar turli sabablarga koʻra boladagi xulqni oʻzgarishini va buzilishi darajasini oshirib yuboradilar, muammolarni juda ogʻir va qiyin qabul qiladilar. Baʼzi bir ota-onalar psixologotibbiy – pedagogik maslahatga shifokor, pedagog yoki qarindoshlari taʼsiri natijasida kelgan boʻlsalarda, oʻz farzandining muammosini tan olishni istamaydilar. Bu esa bolaning shaxs sifatida namoyon boʻlishida, xulqini boshqarishida ayrim muammolarni yuzaga keltiradi. Shunda ulardagi qaysarlik, oʻjarlik yoki boʻlmasa passiv xulq koʻrinishlari shakllanib qoladi. Shuning uchun boladagi ijobiy xulq-atvorni shakllantirishda, odatlarning bola faolligini taminlovchi vosita sifatida tarkib topishi uchun tarbiyani toʻgʻri tashkil etish muhimdir. Pedagogik innovatsiyalar asosida faoliyatni tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega. Shu bilan birga taʼlim va tarbiya jarayonini yoʻlga qoʻyishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish xulq- atvor xususiyatlardagi ijobiy sifatlarni shakllanishiga, umumiy va emotsional namoyon boʻluvchi odatlarni rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatuvchi omil bola oladi. Demak, taʼlim-tarbiya jarayonida xulq-atvor shakllanishining dinamikasini taminlovchi omillar intellektual faoliyat usullarini yangi sharoitga koʻchirish, ular oʻz-oʻzini boshqarish, shaxsiy oʻquv motivlarini idora qilish, ichki imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish singari holatlarga refleksiv yondashish zamiridagina namoyon boʻladi.

XULOSA: Turli yosh davrlarida shaxs rivojlanishida uning psixologik xususiyatlariga va rivojlanayotgan sharoitiga alohida e`tibor qaratish kerak. Ma`lumki, muayyan yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta`lim va tarbiya berib bo`lmaydi. Bolaning har bir yoshi o`z qiyinchiliklariga ega bo`ladi va o`ziga nisbatan maxsus munosabatda bo`lishni talab qiladi. Ta`lim va tarbiya jarayonida individual munosabatda bo`lishning sharti o`quvchining psixologik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur bilishdan iborat. Bunda esa yosh davrlariga xos bo`lgan psixik dunyosidan yaxshi xabardor bo`lishni, psixologik jihatdan kuzatishni to`g`ri tashkil qila olishni va tabiiy eksprement uyushtirishni bilishni taqozo qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. M.G.Davletshin, S.M.To`ychiyeva. Umumiy psixologiya, -T.:2002.
2. N.V.Bordovskaya, S.I.Rozum. Psixologiya va pedagogika, 2016.
3. R.Verderber, K.Verderber. Umumiy psixologiya, 2003.